
BURCHINI UNUTGAN OTA



Majburiy ijro byurosining Qo'shtepa tuman bo'limi ish yurituvida fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining qarzdor S.Abduraimovdan undiruvchi S.Xojimatova foydasiga ikki nafar farzandining moddiy ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida ijro hujjati mavjud bo'lib, qarzdor 22.890.000 so'm aliment qarzini to'lashdan bo'yin tovlaganligi va yashiringanligi sababli bo'lim davlat ijrochilari tomonidan unga nisbatan qidiruv e'lon qilingan va qarzdorga nisbatan qidiruv e'lon qilish haqidagi qaror boshqarmaning qidiruv sho''basiga yuborilgan edi.

Byuroning Farg'ona viloyati boshqarmasi qidiruv sho''basi tezkor hodimlari tomonidan jroi yil 21 iyun kuni olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida qarzdor S.Abduraimov topilib, davlat ijrochisiga topshirilgan.

Bundan tashqari, jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tuman sudining shu yil 21 iyun kungi qaroriga asosan qarzdor S.Abduraimovga nisbatan 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-06-21 22:59:01